



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATIDAGI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Sadullayev B.

Turon universiteti Andijon kampusi magistratura bo'limi
2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatidagi ishtirokini kengaytirish masalalari tahlil qilinadi. Eksport salohiyatini oshirishning ustuvor yo'nalishlari, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, moliyaviy va institutsional rag'batlar hamda mavjud muammolar yoritib beriladi. Shuningdek, kichik biznes subyektlarining tashqi bozorlarga chiqishini faollashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, eksport, eksport salohiyati, davlat qo'llab-quvvatlashi, tashqi bozor.

Kirish

Oxirgi 5 yillikda mamlakatimiz iqtisodiyotida ko'zga ko'rinarli tarkibiy o'zgarishlarni ko'rish mumkin. Ular ichida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish masalalari davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida ushbu yo'nalishlar nafaqat yurtimiz yalpi ichki mahsulotida sezilarli ulushni egallamoqda, balki aholi bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan to'ldirish hamda milliy valyuta barqarorligini ta'minlashda ham muhim o'rin tutmoqda. Shu sababli kichik biznes subyektlarini eksport faoliyatiga jalb etish va ularni rag'batlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qabul qilgan bir qator qaror va farmonlar ushbu sohada muhim ro'l o'ynadi. Hususan, 2023-yil 28-iyuldagi "Eksport faoliyatini rivojlantirish va eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-300-son Qaror, 2024-yil 15-yanvardagi "Tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish va eksport geografiyasini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-42-son Farmon, shuningdek 2025-yil 5-martdagi "Eksport salohiyatini oshirishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-67-son Qaror kichik biznes subyektlariga yangi imkoniyatlar ochib berdi.¹

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (Markaz) olib brogan izlnishlari, O'zbekiston hududlarida tadbirkorlik rivojlanish darajasini baholadi.

¹ <https://www.lex.uz/uz/docs/-5801152?ONDATE=26.11.2025>

Quyida keltirilgan diagrammada 2024 yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangidan tashkil etilgan korxonalar soni ko'rish mumkun.



1-rasm. 2024 yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangidan tashkil etilgan korxonalar soni²

2024 yilda uning YAIMdagi ulushi 54,3%, eksportdagi ulushi 33,3% va sanoatdagi ulushi 32,4%ni tashkil etdi. Kichik korxonalar eng tez rivojlangan sohalar sifatida savdo — 84%, qurilish — 76,5% va xizmatlar sohasida — 57% o'sish ko'rsatdi. Ushbu raqamlar tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy o'sish va iqtisodiyotning diversifikatsiyasini ta'minlashda asosiy harakatlantiruvchi kuch ekanligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yil davomida mamlakatda 77 ming yangi korxona tashkil etildi, faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy soni esa 358,1 mingga yetdi. Yangi tashkil etilgan biznes subyektlari soni bo'yicha savdo sohasi yetakchi bo'lib, unda 28 ming korxona ish boshladi. Sanoat sohasida 12,8 mingta (16,6%), qishloq xo'jaligida 9,1 mingta (11,8%), turar joy bilan ta'minlash va ovqatlanish sohasida 6,5 mingta (8,4%) korxona ro'yxatdan o'tdi. Qurilish sohasi 5,1%, axborot va aloqa 3,8%, transport va ombor xo'jaligi 3,5%, sog'liqni saqlash esa 1,9% yangi subyektlarni tashkil etdi. Qolgan faoliyat turlarining ulushi 9,4 mingta korxona yoki 12,2%ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo'nalishlar orqali amalga oshirilishi mumkin:

1. Moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish. Eksportga yo'naltirilgan loyihalar uchun imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va kafolatlar taqdim etish kichik biznes subyektlarining tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini oshiradi. Shuningdek, eksportoldi moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

2. Eksport infratuzilmasini rivojlantirish. Logistika markazlari, sertifikatlash va standartlashtirish tizimlarini takomillashtirish eksport jarayonlaridagi xarajatlarni

² <https://review.uz/uz/> sayti ma'lumotlaridan olindi.

kamaytiradi. Elektron savdo platformalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ham kichik biznes uchun muhim yo‘nalish hisoblanadi.

3. Axborot va konsalting xizmatlarini kengaytirish. Tashqi bozorlar talabi, bojxona tartib-taomillari va huquqiy me‘yorlar bo‘yicha axborot berish, eksport masalalarida maslahat xizmatlarini ko‘rsatish kichik biznes subyektlarining eksportga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

4. Kadrlar salohiyatini oshirish. Eksport faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlar uchun treninglar, seminarlar va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish ularning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Xulosa

2025 yilda Prezident va tadbirkorlar o‘rtasidagi navbatdagi muloqot nafaqat yil yakunlarini tahlil qilish va mavjud muammolarni muhokama qilish bilan cheklanmaydi, balki yangi g‘oya va tashabbuslarni shakllantirish uchun ham muhim platformaga aylanadi.

Rejaga ko‘ra, asosiy e‘tibor biznesning moliyaviy resurslarga kengroq kirishini ta‘minlash, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, innovatsion loyihalarni rag‘batlantirish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlardagi mavqeini mustahkamlashga qaratilgan.

Ushbu uchrashuv mamlakat oldiga qo‘yilgan strategik vazifalarni — raqobatbardosh va barqaror iqtisodiyotni barpo etish yo‘lida izchil harakatlarning navbatdagi bosqichi sifatida ko‘rilmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. *Yillik statistika hisobotlari 2024–2025*. Toshkent, 2025.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi. *Tadbirkorlik va kichik biznes rivoji bo‘yicha hisobotlar*. Toshkent, 2024.

3. Abdullayev, S. *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyalari*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2023.

4. Karimov, R. *Eksport faoliyatini kengaytirish va yangi bozorlarga chiqish mexanizmlari*. Toshkent, 2022.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari, 2020–2025 yillar.

6. OECD. *SME and Entrepreneurship Outlook 2023*. Paris: OECD Publishing, 2023.

7. Raxmonov, J. *Tashqi bozorlarda kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish*. Toshkent, 2022.